

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malakalar ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va MMKga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, suv xo'jaligi sohasi bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malakalar ramkasi suv xo'jaligi sohasida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Suv xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha Tarmoq malakalar ramkasining asosiy maqsadi suv xo'jaligi sohasida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malakalar ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun suv xo'jaligi sohasidagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xattiharakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir)) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq

tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

Mazkur tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos bo'lgan qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi 837-XII-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-avgustdagi "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi O'RQ-865-son Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi "2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ–3012-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktyabrdagi "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4486-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-oktyabrdagi "Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4499-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi "Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida suv resurslaridan samarali foydalanish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4801-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-dekabrda "Qoraqalpog'iston Respublikasida suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4912-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrda "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4919-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevralda "Suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-5005-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5055-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevralda "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-141-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martda "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-144-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martda "Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-145-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-aprelda "Suv xo'jaligi vazirligi faoliyati takomillashtirilganligi munosabati bilan ayrim qarorlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi PQ-205-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-sentyabrda "Orolbo'yi havzasida suv resurslarini iqlim o'zgarishiga mos holda boshqarish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-381-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-oktyabrda "Suv ta'minoti og'ir bo'lgan hududlar uchun suv yetkazib berish xizmatlarini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-394-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-dekabrda "Toshkent viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-435-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabrda PQ-437-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabrda "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-439-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–107-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–158-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi "Baliqchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish"ga oid PQ–281-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–300-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-yanvardagi "Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5742-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–6024-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–269-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–14-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida suv xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–101-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi PF–74-son Farmoni.

Asosiy qisqartmalar:
MMR – Milliy malakalar ramkasi;
TMR – Tarmoq malaka ramkasi;
IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;
MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;
GIS – Geographic Information System;
SCADA – Supervisory Control And Data Acquisition.

2. Tarmoq malakalar ramkasining pasporti

Suv xo‘jaligi sohasi — yer usti va yer osti suv resurslarini boshqarish, ularni yig‘ish, saqlash, tozalash, taqsimlash hamda qishloq xo‘jaligi, sanoat, ichimlik suvi ta‘minoti va ekologik ehtiyojlar uchun samarali yetkazib berishni ta‘minlovchi strategik tarmoqdir. Mazkur soha suv omborlari, irrigatsiya tarmoqlari, gidrotexnik inshootlar, nasos stansiyalari, kollektorsuv tizimlari hamda ichimlik suvi infratuzilmasining barqaror ishlashini qo‘llabquvvatlaydi.

Ushbu soha suv resurslarini boshqarish, melioratsiya va irrigatsiya tizimlarini loyihalash va ekspluatatsiya qilish, gidrotexnik inshootlarni qurish va mustahkamlash, suvni tozalash va taqsimlash, drenaj va kollektorlash jarayonlarini yuritish, suv hisobini yuritish, suvdan samarali foydalanish, suv sifatini monitoring qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda gidrometeorologik kuzatuvlar kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Suv xo‘jaligi sohasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, qishloq xo‘jaligi hosildorligini oshirishda, sanoat korxonalarining uzluksiz faoliyatida, ichimlik suvi ta‘minotida va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega. Ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar — gidrotexnik muhandislar, irrigatsiya tizimi operatorlari, nasos stansiyalari mashinistlari, melioratsiya texniklari, suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimi mutaxassislari, laboratoriya xodimlari, gidrometrologlar hamda suv resurslarini boshqarish bo‘yicha dispetcherlardir.

Suv xo‘jaligi sohasi xalqaro talablarga hamda milliy normativhuquqiy hujjatlarga asoslangan holda yuritilib, ekologik barqarorlik, suv tejash, xavfsizlik, barqaror boshqaruv va innovatsion texnologiyalarni joriy etish tamoyillariga tayanadi.

Suv xo‘jaligi sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

- A – seksiyasi Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi;
- F – seksiyasi Qurilish.

O‘zbekiston Respublikasida Suv xo‘jaligi sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	A – seksiyasi Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	01 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish	01.6 Qishloq xo'jalik sohasidagi yordamchi faoliyat turlari	01.61 Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirish sohasidagi yordamchi faoliyat turlari	01.61.3 Qishloq xo'jalik sug'orish uskunalariga xizmat ko'rsatish
2	F – seksiyasi Qurilish	42 Fuqarolik obyektlarini qurish	42.9 Boshqa muhandislik inshootlari qurish	42.91 Suv inshootlari qurish	42.91.0 Suv inshootlari qurish

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	21331	Gidromelioratsiya, irrigatsiya va drenaj tizimlari bo'yicha professional mutaxassislar
2	21332	Suv xo'jaligi boshqaruvi bo'yicha professional mutaxassislar
3	21425	Gidrotexnika inshootlari bo'yicha muhandislar
4	21426	Suv resurslarini boshqarish va monitoring bo'yicha muhandislar
5	21427	Gidrogeologiya va suv balansini tahlil qilish bo'yicha mutaxassislar
6	31154	Gidromelioratsiya va irrigatsiya tizimlariga xizmat ko'rsatuvchi texniklar
7	31155	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari texniklari
8	31433	Gidrotexnika inshootlari bo'yicha texniklar
9	31434	Suv resurslarini monitoring qilish bo'yicha texniklar
10	62250	Suv omborlari, kanallar, gidrotexnik inshootlar operatorlari
11	62251	Nasos stansiyalari operatorlari (suv nasoslari)
12	62252	Suv ta'minoti tizimlarida ishlovchi operatorlar
13	62253	Drenaj va kollektor tarmoqlari bo'yicha texnik xodimlar
14	72282	Gidrotexnik inshootlarni ta'mirlash bo'yicha ustalar
15	75440	Suv sifati laboratoriya xodimlari
16	75441	Suv namunalari bo'yicha laboratoriya texniklari
17	81620	Toza ichimlik suvi ishlab chiqarish va taqsimlash operatorlari

3. Tarmoq tahlili

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq va suv xo'jaligini davlat tomonidan boshqarish tizimini tubdan takomillashtirishga doir tashkiliy choratadbirlar to'g'risida” 2018yil 12fevraldagi PF–5330son Farmoni hamda “O'zbekiston

Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" 2018yil 17apreldagi PQ–3672son qaroriga asosan tashkil etilgan.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasida barcha suv manbalari bo'yicha suv resurslarini boshqarish, suvlarning hisobi, hisoboti va balansini shakllantirish, suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradigan maxsus vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi:

– Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi;

– Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi;

– Suv xo'jaligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish departamenti;

– Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi;

– Suv xo'jaligida islohotlar markazi;

– Markaziy dispetcherlik va suv balans xizmati;

– "Suv xo'jaligida bozor mexanizmlarini joriy qilish" davlat muassasasi;

– Farg'ona vodiysi magistral kanallaridan foydalanish boshqarmasi;

– Janubiy Mirzacho'l kanalidan foydalanish boshqarmasi;

– Zarafshon magistral tizimidan foydalanish boshqarmasi;

– Irrigatsiya va suv muammolari ilmiytadqiqot instituti.

Vazirlik tizimida jami 300 ga yaqin tashkilot mavjud bo'lib, ular 34 mingdan ortiq shtat birligiga ega, shundan boshqaruv xodimlari 2,5 ming nafardan ortiq, ishlab chiqarish xodimlari 30 ming nafarga yaqin, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar 2 ming nafardan ortiqni tashkil qiladi. Bugungi kunda, Vazirlik tizimida 30 yoshgacha bo'lgan yosh xodimlar 4,5 ming nafarni tashkil etadi.

Hozirgi kunda tizim tashkilotlarida jami 2 200 nafarga yaqin xotin-qizlar faoliyat yuritadi. Xotin-qizlarning 36 nafari Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida rahbar lavozimlarida ishlab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida" 2025yil 7maydagi PF–74son Farmoniga asosan Vazirlikning faoliyati uch bo'g'inga ajratilib, vertikal boshqaruv tizimi tashkil qilindi. Bunda yuqori bo'g'in – davlat suv siyosatini yuritish, regulyator, o'rta bo'g'in – suv obyektlarini ekspluatatsiya qilish, qurish hamda sohaga biznes jarayonlarini olib kirish, quyi bo'g'in – bevosita iste'molchilarga suvni yetkazib berish bilan shug'ullanadi.

Har yili oliy ma'lumotli 500 nafar yoshlar Vazirlik tizimiga ishga qabul qilinmoqda. Ushbu ko'rsatkichni yil yakuniga qadar 700 nafarga yetkazishni, kelgusi yilda esa 3 ming nafardan oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Ma'lumot uchun: 2020 – 2025 yillar davomida 2 ming 800 nafar yoshlar Vazirlik va uning tizim tashkilotlariga ishga qabul qilindi.

2025yil davomida Vazirlik markaziy apparati hamda uning tizimidagi tashkilotlarning jami 2 863 nafar rahbar va mas'ul xodimlarning malakasi oshirilgan bo'lib, ularning 10 nafari turli xorijiy davlatlarda soha bo'yicha malaka oshirib qaytgan.

Bugungi kunda Vazirlik va uning tizim tashkilotlari uchun 16 ta mahalliy oliy ta'lim muassasalari hamda 26 ta professional ta'lim muassasalarida kardlar tayyorlanmoqda.

Tarmoqning strategik ahamiyati

Suv xo'jaligi sohasi O'zbekiston Respublikasining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi tayanch infratuzilmaviy tarmoqlardan biridir. Mazkur tarmoq qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika, ichimlik suvi ta'minoti, sanitariya, hududlarni kompleks rivojlantirish hamda ekologik xavfsizlik bilan bevosita uzviy bog'liq bo'lib, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati va aholining hayot sifati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sug'oriladigan dehqonchilikka tayangan iqtisodiyot sharoitida suv resurslarining uzluksiz, adolatli va samarali taqsimlanishi milliy ishlab chiqarish barqarorligining asosiy shartidir.

Suv xo'jaligi tarmog'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning bevosita omili bo'lib, paxta, g'alla, bog'dorchilik, sabzavotchilik va chorvachilik tarmoqlarining hosildorligi to'g'ridan-to'g'ri sug'orish tizimlarining holati va suv ta'minoti ishonchliligiga bog'liq. Shu bois suv xo'jaligidagi har bir islohot agrar sohaning samaradorligiga, bandlik darajasiga va qishloq hududlarining ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish hosildorlikni oshirish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va eksportbop mahsulotlar ulushini ko'paytirish imkonini yaratadi.

Sanoat va energetika tarmoqlari uchun ham suv strategik resurs hisoblanadi. Issiqlik va gidroenergetika obyektlarida, kimyo, metallurgiya, oziq-ovqat va qurilish materiallari sanoatida suv texnologik jarayonlarning ajralmas qismi bo'lib, ishlab chiqarish uzluksizligi suv ta'minotining barqarorligiga bog'liq. Gidroenergetika obyektlari nafaqat energiya ishlab chiqaradi, balki suv oqimini tartibga solish, toshqinlarning oldini olish va sug'orish tizimlarini qo'llab-quvvatlashda ham muhim funksiyani bajaradi.

Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash va sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilashda suv xo'jaligi tarmog'ining o'rni beqiyosdir. Toza ichimlik suvi aholi salomatligi, demografik barqarorlik, urbanizatsiya jarayonlari va hududlarning investitsion jozibadorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan suv xo'jaligi sog'liqni saqlash tizimi bilan uzviy bog'langan bo'lib, suv ta'minoti sifatining yaxshilanishi kasalliklarning oldini olish, ijtimoiy xarajatlarni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan suv xo'jaligi sohasi tabiiy ekotizimlarning saqlanishi, yerlarning sho'rlanishi va cho'llanish jarayonlarining oldini olish, suv havzalari va bioxilma-xillikni muhofaza qilishda asosiy boshqaruv instrumentidir. Orolbo'yi hududidagi ekologik vaziyat, kollektor-drenaj

tizimlarining samaradorligi, yer osti suvlaridan oqilona foydalanish va daryolarning ekologik oqimini saqlash suv xo'jaligi tarmog'ining strategik vazifalari sirasiga kiradi. Tarmoqdagi har qanday qaror ekologik muvozanatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat suv resurslarining katta qismi transchegaraviy daryolar hisobiga shakllanishi suv xo'jaligi sohasiga geosiyosiy va diplomatik ahamiyat ham yuklaydi. Suv taqsimoti, daryolar oqimini tartibga solish va yirik gidrotexnika loyihalari mintaqaviy hamkorlik, xalqaro kelishuvlar va suv huquqi doirasida muvofiqlashtiriladi. Shu sababli suv xo'jaligi nafaqat iqtisodiy, balki tashqi siyosat, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik omili sifatida ham strategik tarmoq hisoblanadi.

Iqlim o'zgarishi sharoitida suv xo'jaligi tarmog'ining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Qurg'oqchiliklar chastotasining ko'payishi, muzliklar hajmining qisqarishi, yog'in-sochinning notekis taqsimlanishi suv resurslari boshqaruvini milliy xavfsizlik masalasiga aylantirmoqda. Suvdan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va raqamli boshqaruv tizimlarini tatbiq etish orqali suv tanqisligiga moslashuv mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Shuningdek, suv xo'jaligi sohasi hududiy rivojlanish va infratuzilma siyosatining tayanch elementi sifatida alohida ahamiyatga ega. Yangi yer maydonlarini o'zlashtirish, agrar klasterlar, sanoat zonalar va logistika markazlarini rivojlantirish bevosita suv ta'minoti imkoniyatlariga bog'liq. Suv infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'plab qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi, qurilish, mashinasozlik, servis va IT xizmatlari kabi tarmoqlarning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Resurslar bazasi va gidrografik xususiyatlar.

O'zbekiston Respublikasining suv resurslari bazasi geografik, iqlimiy va gidrologik omillar bilan belgilanadi hamda asosan transchegaraviy daryo tizimlariga tayanadi. Mamlakat hududida suv resurslarining asosiy qismi Amudaryo va Sirdaryo havzalari orqali shakllanib, ularning oqimi qo'shni davlatlar hududlarida vujudga keladi. Shu bois suv resurslari ta'minoti nafaqat ichki boshqaruv samaradorligiga, balki mintaqaviy hamkorlik, kelishuvlar va daryolar oqimini muvofiqlashtirish darajasiga ham bevosita bog'liq.

Iqlim sharoiti keskin kontinental bo'lib, yog'in-sochin miqdori kam va notekis taqsimlangan, bug'lanish darajasi yuqori. Bu holat suv resurslari tanqisligini kuchaytiradi va mavjud suvni maksimal darajada tejash, yo'qotishlarni kamaytirish hamda qayta foydalanish mexanizmlarini rivojlantirishni talab etadi. Yillik suv oqimi mavsumiy xarakterga ega: bahor-yoz oylarida tog'li hududlarda qor va muzliklarning erishi hisobiga oqim ortadi, kuz-qish davrida esa keskin kamayadi. Mazkur mavsumiylik suv omborlari, daryo oqimini tartibga soluvchi inshootlar va sug'orish rejimlarini puxta rejalashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Suv resurslari tarkibi yer usti va yer osti manbalaridan iborat. Yer usti suvlari daryolar, suv omborlari, ko'llar va kollektor-drenaj tizimlari orqali shakllanadi. Amudaryo va Sirdaryo havzalari mamlakat sug'oriladigan yerlarining asosiy qismini

suv bilan ta'minlaydi. Suv omborlari esa oqimni tartibga solish, toshqinlarning oldini olish, vegetatsiya davrida barqaror suv ta'minotini yaratish va energetik ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ochiq kanallar va kollektor-drenaj tarmoqlarida filtratsiya va bug'lanish sababli sezilarli suv yo'qotishlari kuzatiladi.

Yer osti suv resurslari ichimlik suvi ta'minoti, sanoat ehtiyojlari va ayrim hududlarda sug'orish uchun muhim zaxira manbai hisoblanadi. Biroq ularning tiklanish sur'ati cheklangan bo'lib, haddan tashqari va nazoratsiz foydalanish sathning pasayishi, minerallashuv darajasining ortishi va suv sifatining yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Shu bois yer osti suvlarini muhofaza qilish, monitoring qilish, quduqlarni hisobga olish va suv olish limitlarini joriy etish tarmoqning ustuvor vazifalaridan biridir.

Gidrografik jihatdan O'zbekiston hududi tog'li (yig'ilish zonalari), vodiy va tekislik (taqsimlash zonalari) hududlarga ajraladi. Tog'li mintaqalarda suv resurslari shakllanadi, tekislik hududlarida esa asosan iste'mol qilinadi. Bu hududiy tafovut suvni uzoq masofalarga yetkazib berishni, nasos stansiyalari, magistral kanallar va murakkab gidrotexnika inshootlarini talab etadi. Natijada suv ta'minoti tizimi energiya sarfiga yuqori darajada bog'liq bo'lib, elektr energiyasi narxlarining o'zgarishi tarmoq xarajatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Iqlim o'zgarishi suv resurslari bazasiga tobora kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Muzliklar hajmining qisqarishi, qurg'oqchilik davrlarining uzayishi, ekstremal ob-havo hodisalari (sel, toshqinlar) chastotasining ortishi suv oqimlarining barqarorligiga putur yetkazmoqda. Bu holat suv xo'jaligida moslashuvchan boshqaruv, prognozlash modellarini joriy etish, suv omborlaridan foydalanish rejimini optimallashtirish va suv tejovchi texnologiyalarni keng tatbiq etishni talab qiladi.

Kollektor-drenaj tizimlari resurslar bazasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, yerlarning meliorativ holatini saqlash, sho'rlanish va botqoqlanishning oldini olishga xizmat qiladi. Biroq drenaj suvlari ko'pincha yuqori minerallashuvga ega bo'lib, ularni qayta foydalanish cheklangan. Shu sababli drenaj suvlarini tozalash, qayta ishlatish imkoniyatlarini kengaytirish va ekologik talablarga muvofiq chiqarish tizimlarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Suv resurslarini hisobga olish va monitoring qilish tizimlari resurslar bazasini boshqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. An'anaviy o'lchash uskunalarining eskirganligi, avtomatlashtirilgan nazorat vositalarining yetarli darajada joriy etilmaganligi ayrim hududlarda suv sarfini aniq baholashga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois GIS, masofaviy zondlash, IoT sensorlari va avtomatlashtirilgan dispetcherlik tizimlari orqali real vaqt rejimida monitoringni yo'lga qo'yish resurslardan oqilona foydalanishning muhim shartidir.

Infratuzilma va ishlab chiqarish zanjiri.

Suv xo'jaligi tarmog'ining infratuzilmasi mamlakat hududlarini suv bilan ta'minlash, sug'orish tizimlarining barqaror ishlashi, gidrotexnika inshootlari xavfsizligi va ekologik muvozanatni ta'minlovchi murakkab, ko'p pog'onali tizimdan

iborat. Mazkur infratuzilma suvni yig'ishdan tortib, iste'molchiga yetkazish, hisobga olish, qayta taqsimlash, drenaj va qayta foydalanishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Tarmoq samaradorligi ushbu zanjirdagi har bir bo'g'inning texnik holati, boshqaruv sifati va o'zaro uyg'unligiga bevosita bog'liq.

Asosiy infratuzilma elementlari

Suv manbalari va saqlash obyektlari. Infratuzilmaning boshlang'ich bo'g'ini daryolar, suv omborlari, havzalar va tabiiy ko'llardan iborat. Suv omborlari mavsumiy oqimni tartibga solish, vegetatsiya davrida barqaror suv ta'minotini yaratish, toshqinlarning oldini olish va energetik ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'ynaydi. Omborlarning samarali ekspluatatsiyasi suv zaxirasini optimallashtirish, xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilish va favqulodda vaziyatlar uchun tayyorgarlikni talab etadi.

Magistral va xo'jaliklararo kanallar. Suvni manbalardan iste'mol hududlariga yetkazib beruvchi asosiy arteriyalar bo'lib, yuzlab va minglab kilometrni tashkil etadi. Ularning katta qismi ochiq kanallar bo'lgani sababli filtratsiya, bug'lanish va texnik nosozliklar tufayli sezilarli yo'qotishlar yuzaga keladi. Kanal qoplamalarini mustahkamlash, betonlash, quvurlashtirish va gidravlik rejimlarni optimallashtirish suv yo'qotishlarini kamaytirishning asosiy yo'nalishidir.

Nasos stansiyalari va energetik ta'minot. Tog'oldi va tekislik hududlariga suv yetkazib berishda nasos stansiyalari muhim bo'g'in hisoblanadi. Ularning ishlashi elektr energiyasiga yuqori darajada bog'liq bo'lib, energiya samaradorligi, uzluksiz ta'minot va ehtiyot quvvatlar mavjudligi tizim barqarorligini belgilaydi. Zamonaviy, energiya tejamkor nasoslar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi.

Gidrotexnika inshootlari. To'g'onlar, shlyuzlar, suv bo'luvchi va tartibga soluvchi qurilmalar daryo oqimini boshqarish, suv sathini nazorat qilish, xavfsizlikni ta'minlash va irrigatsiya rejimlarini muvofiqlashtirishda xizmat qiladi. Inshootlarning texnik holatini muntazam diagnostika qilish, seysmik barqarorlik, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va erta ogohlantirish tizimlari tarmoq xavfsizligining muhim omilidir.

Kollektor-drenaj tarmoqlari. Yerlarning meliorativ holatini saqlash, sho'rlanish va botqoqlanishning oldini olish uchun drenaj tizimlari zarur. Ushbu tarmoqlar ortiqcha suvni chiqarib yuborish, grunt suvlari sathini me'yorida ushlab turish va hosildorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Drenaj suvlarining sifatini nazorat qilish, ularni qayta foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ekologik talablarga muvofiq chiqarish muhim vazifadir.

Suv o'lchash va nazorat vositalari. Hidropostlar, suv o'lchagichlar, avtomatlashtirilgan hisob stansiyalari, laboratoriyalar va dispetcherlik markazlari suv sarfini aniqlash, yo'qotishlarni baholash va adolatli taqsimotni ta'minlaydi. Zamonaviy infratuzilma real vaqt rejimida monitoring, masofaviy boshqaruv va tahliliy platformalarni talab etadi.

Ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) zanjiri.

Suv xo'jaligi tarmog'ining ishlab chiqarish zanjiri resursni "yig'ish – saqlash – tashish – taqsimlash – iste'mol – drenaj – monitoring – qayta foydalanish" bosqichlaridan iborat:

Yig'ish va shakllantirish: daryolar oqimi, suv omborlarida jamg'arish, mavsumiy zaxira yaratish.

Saqlash va tartibga solish: suv omborlari orqali oqimni yil davomida barqarorlashtirish, toshqin va qurg'oqchilik risklarini kamaytirish.

Tashish: magistral kanallar, quvurlar va nasos stansiyalari orqali suvni iste'mol hududlariga yetkazish.

Taqsimlash: suv bo'luvchi inshootlar, xo'jaliklararo tarmoqlar va quyi bo'g'inda adolatli, ehtiyojga mos taqsimot.

Iste'mol: qishloq xo'jaligi (sug'orish), sanoat, energetika, kommunal va ichimlik suvi ta'minoti.

Drenaj va chiqarish: ortiqcha suvni kollektor-drenaj tarmoqlari orqali chiqarish, yerlarning meliorativ holatini saqlash.

Monitoring va hisob: suv sarfini o'lchash, yo'qotishlarni aniqlash, hisobot va tahlil.

Qayta foydalanish: texnologik suvlarni tozalash, drenaj suvlaridan cheklangan holda qayta foydalanish, suv tejash.

Mazkur zanjirdagi har bir bosqichda texnik, boshqaruv va kadrlar salohiyati uyg'unligi ta'minlanmasa, umumiy samaradorlik pasayadi va yo'qotishlar ortadi.

Texnologik daraja va modernizatsiya ehtiyoji

Infratuzilmaning muhim qismi o'nlab yillar oldin barpo etilgan bo'lib, jismoniy va ma'naviy eskirish darajasi yuqori. Bu holat suv yo'qotishlari, avariylar xavfi va ekspluatatsiya xarajatlarining oshishiga olib keladi. Modernizatsiyaning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

kanallarni betonlash yoki quvurlashtirish orqali filtratsiya va bug'lanish yo'qotishlarini kamaytirish;

energiya tejamkor nasos uskunalari joriy etish;

gidrotexnika inshootlarini rekonstruksiya qilish va xavfsizlik tizimlarini kuchaytirish;

avtomatlashtirilgan suv hisobini yo'lga qo'yish, SCADA va dispetcherlik platformalarini joriy etish;

kollektor-drenaj tizimlarini tozalash, rekonstruksiya qilish va ekologik standartlarga moslashtirish.

Boshqaruv va raqamlashtirish.

Zamonaviy infratuzilma raqamli boshqaruvsiz samarali ishlamaydi. GIS, masofaviy zondlash, IoT sensorlari va avtomatlashtirilgan dispetcherlik markazlari orqali suv oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish, talafotlarni aniqlash va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) suvni adolatli taqsimlash, resurslarni optimallashtirish va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Xavfsizlik va barqarorlik.

Infratuzilma barqarorligi gidrotexnika inshootlari xavfsizligi, seysmik barqarorlik, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va texnik xizmat sifatiga bog'liq. Profilaktik ta'mirlash, diagnostika, risklarni baholash, sug'urta mexanizmlari va favqulodda holatlar uchun zaxira quvvatlar tizim barqarorligini ta'minlaydi. Iqlim o'zgarishi sharoitida ekstremal hodisalarga moslashuvchan infratuzilma qurilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv modeli va institutsional tuzilma.

Suv xo'jaligi sohasida boshqaruv modeli resurslarning cheklanganligi, transchegaraviy xususiyati, infratuzilmaning murakkabligi va iqlim o'zgarishi sharoitida barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan integratsiyalashgan yondashuvga tayanadi. Zamonaviy boshqaruv modeli "markaziy siyosat – havza darajasida rejalashtirish – quyi bo'g'inda operativ boshqaruv" tamoyiliga asoslanib, resurslardan oqilona foydalanish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Boshqaruv tamoyillari.

Integratsiyalashgan havza boshqaruvi. Suv resurslarini daryo havzasi kesimida boshqarish suvning tabiiy aylanishi, ekologik oqimlar, hududlararo taqsimot va manfaatdor tomonlar muvozanatini hisobga olish imkonini beradi. Bu yondashuv suvni faqat ma'muriy chegaralar asosida emas, balki gidrografik birlik sifatida boshqarishni ta'minlaydi.

Subsidiyarlik va desentralizatsiya. Strategik rejalashtirish va normativ-huquqiy tartibga solish markaziy darajada amalga oshirilsa, operativ boshqaruv, suv taqsimoti va ekspluatatsiya quyi bo'g'inlarda – hududiy tuzilmalar, irrigatsiya tizimlari va suv foydalanuvchilar uyushmalari orqali olib boriladi. Bu qarorlarni joyida, real ehtiyojlardan kelib chiqib qabul qilishga xizmat qiladi.

Shaffoflik va hisobdorlik. Suvdan foydalanish bo'yicha ma'lumotlarning ochiqligi, raqamli hisob va monitoring, manfaatdor tomonlar (fermerlar, sanoat korxonalari, mahalliy hokimliklar) bilan muloqot mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi resurslarni adolatli taqsimlash va korrupsiya risklarini kamaytiradi.

Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv. Gidrologik prognozlar, suv balanslari, real vaqt monitoringi, tahliliy platformalar asosida qaror qabul qilish suv tanqisligi sharoitida resurslardan eng yuqori samaradorlik bilan foydalanishga imkon beradi.

Institutsional tuzilma (darajalar kesimida)

Markaziy daraja. Davlat siyosatini shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, strategiyalar va davlat dasturlarini tasdiqlash, investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish markaziy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu darajada tarmoq bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilanadi, xavfsizlik, ekologiya, transchegaraviy hamkorlik masalalari ko'rib chiqiladi.

Havza (mintaqaviy) darajasi. Daryo havzalari kesimida suv resurslarini rejalashtirish, yillik va mavsumiy suv taqsimotini muvofiqlashtirish, suv omborlari va yirik inshootlar rejimini belgilash, hududlararo manfaatlarni uyg'unlashtirish

amalga oshiriladi. Bu bo'g'in strategik qarorlarni amaliy rejalarga aylantiruvchi muhim "ko'priq" hisoblanadi.

Hududiy daraja. Viloyat va tuman darajasidagi tuzilmalar irrigatsiya tizimlarini ekspluatatsiya qilish, nasos stansiyalari va kanallarni boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, mahalliy ehtiyojlar bo'yicha taqsimotni tashkil etadi. Hududiy daraja resurslardan foydalanishning kundalik samaradorligini belgilaydi.

Quyi bo'g'in va manfaatdor tomonlar. Suv foydalanuvchilar uyushmalari, fermer xo'jaliklari, sanoat va kommunal iste'molchilar suvdan bevosita foydalanuvchilar sifatida boshqaruv tizimining muhim subyektlaridir. Ularning ehtiyojlarini hisobga olish, suvdan foydalanish intizomini mustahkamlash, tejamkorlikni rag'batlantirish tarmoq samaradorligini oshiradi.

Rejalashtirish va muvofiqlashtirish mexanizmlari

Strategik rejalashtirish. O'rta va uzoq muddatli rivojlanish dasturlari, infratuzilmani modernizatsiya qilish rejalari, iqlimga moslashuv choralari belgilash orqali tarmoqning barqaror yo'nalishi ta'minlanadi.

Yillik va mavsumiy suv balanslari. Vegetatsiya davri uchun suv taqsimoti, suv omborlaridan foydalanish rejimlari, qurg'oqchilik va toshqin xavfini kamaytirish bo'yicha ssenariylar ishlab chiqiladi.

Idoralararo muvofiqlashtirish. Qishloq xo'jaligi, energetika, ekologiya, favqulodda vaziyatlar, sanitariya va hududiy rivojlanish bilan bog'liq masalalar bo'yicha qarorlar idoralararo mexanizmlar orqali muvofiqlashtiriladi.

Iqtisodiy boshqaruv va tartibga solish

Tarif va rag'batlar. Suvdan foydalanishda iqtisodiy mexanizmlar – tariflar, subsidiyalar, suv tejash texnologiyalarini qo'llagan subyektlar uchun rag'batlantirish choralari joriy etiladi. Maqsad – suvni "arzon resurs" sifatida emas, balki cheklangan strategik boylik sifatida boshqarishdir.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh). Nasos stansiyalari, kanallarni rekonstruksiya qilish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish kabi yo'nalishlarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish investitsiya yukini kamaytiradi va boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Loyihalarni boshqarish. Yirik infratuzilma loyihalarini tanlash, ustuvorlikni belgilash, moliyaviy va texnik monitoring mexanizmlari institutsional salohiyatni mustahkamlaydi.

Raqamli boshqaruv va shaffoflik.

Avtomatlashtirilgan hisob va monitoring. SCADA, GIS, masofaviy zondlash va IoT sensorlari orqali suv sarfi, yo'qotishlar, inshootlar holati real vaqt rejimida kuzatiladi. Bu tezkor qarorlar qabul qilish va resurslarni optimallashtirish imkonini beradi.

Ochiq ma'lumotlar va jamoatchilik ishtiroki. Suv taqsimoti, loyihalar va xarajatlar bo'yicha ma'lumotlarning ochiqligi manfaatdor tomonlar ishonchini oshiradi, ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi va boshqaruv sifatini yaxshilaydi.

Xavfsizlik, risklarni boshqarish va favqulodda holatlar

Gidrotexnika xavfsizligi. To'g'onlar, shlyuzlar va suv omborlari holatini doimiy monitoring qilish, seysmik barqarorlikni baholash, erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish boshqaruv modelining ajralmas qismi hisoblanadi.

Iqlim risklari. Qurg'oqchilik, sel va toshqinlar xavfini prognozlash, moslashuv ssenariylarini ishlab chiqish, sug'urta va zaxira mexanizmlarini qo'llash barqarorlikni ta'minlaydi.

Kadrlar va institutsional salohiyat.

Boshqaruv modelining samaradorligi malakali kadrlar, aniq vakolatlar taqsimoti va institutsional madaniyatga bog'liq. Suv resurslarini boshqarish, gidrotexnika xavfsizligi, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy tahlil va loyihalarni boshqarish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tarmoqni modernizatsiya qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Iqtisodiy mexanizmlar va moliyalashtirish.

Suv xo'jaligi tarmog'ining barqaror faoliyati va izchil modernizatsiyasi iqtisodiy mexanizmlarning to'g'ri shakllantirilishi hamda moliyalashtirish manbalarining barqarorligi va diversifikatsiyasiga bevosita bog'liqdir. Tarmoqning kapital sig'imi yuqori bo'lgani, infratuzilma obyektlarining uzoq xizmat muddati, ekspluatatsiya va texnik xizmat xarajatlarining salmoqli ulushga egaligi moliyaviy boshqaruvni strategik darajaga ko'taradi. Suv resurslarining cheklanganligi sharoitida investitsiyalarning maqsadli yo'naltirilishi, xarajatlarning optimallashtirilishi va iqtisodiy rag'batlar tizimining joriy etilishi tarmoq samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Suv xo'jaligi infratuzilmasining katta qismi davlat mulki bo'lib, asosiy moliyalashtirish manbai sifatida davlat byudjeti va maqsadli davlat dasturlari xizmat qiladi. Byudjet mablag'lari suv omborlari, magistral kanallar, nasos stansiyalari, kollektor-drenaj tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilishga, gidrotexnika inshootlari xavfsizligini ta'minlashga, suv hisobini avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishga yo'naltiriladi. Maqsadli dasturlar orqali hududlar kesimida ustuvor obyektlar belgilanadi, investitsiya limitlari aniqlanadi va natijadorlik ko'rsatkichlari joriy etiladi. Bunda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish, moliyaviy nazorat va audit mexanizmlarini kuchaytirish mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Tarmoqni modernizatsiya qilishda xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratiladigan kreditlar va grantlar muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Ushbu mablag'lar yirik infratuzilma loyihalari, energiya samaradorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, raqamli monitoring tizimlarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Xalqaro moliyalashtirishning afzalligi uzoq muddatli resurslarga kirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv standartlarini takomillashtirishdan iborat. Shu bilan birga, tashqi qarz yukini oqilona boshqarish, valyuta xatarlarini hisobga olish va loyihalarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash muhim vazifa bo'lib qoladi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari suv xo'jaligi infratuzilmasida xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish, suv hisobini avtomatlashtirish, raqamli boshqaruv platformalarini joriy etish, ayrim obyektlarni ekspluatatsiyaga berish kabi yo'nalishlarda xususiy investitsiyalar davlat yukini kamaytiradi, boshqaruv sifatini oshiradi va ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirishga imkon yaratadi. Bunda tarif siyosatining barqarorligi, shaffof shartnomalar, risklarni adolatli taqsimlash va davlat kafolatlari investorlar ishonchini ta'minlovchi asosiy shartlardir.

